

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

X.X.KOMOLOV _____

«__» _____ 2014 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

S.Maxmudov _____

«__» _____ 2014 y.

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA'LIM
YO'NALISHINING BITIRUVCHISI**

XOLDAROV MUXAMMADNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

***Mavzu: Baliqchi tumani “Nodirbek” fermer xo'jaligida moliyaviy
natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning tahlili.***

BMI rahbari:

i.f.n.:

Bajaruvchi:

Sk.Q.MAXMUDOV

M.XOLDAROV

ANDIJON – 2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI
IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI
BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining
mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov_____

«____» _____ 20__ yil.

Kunduzgi bo'lim buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishining
4-bosqich talabasi Xoldarov Muxammadning
bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun

TOPSHIRIQ

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: institut rektorining 2013 yil _____ №_____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
2. BMIning mavzusi: Baliqchi tumani “Nodirbek” fermer xo'jaligida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning tahlili.
3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti 5 may 2014 yil.
4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari. BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.
5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining BXMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, hamda “**Nodirbek**” fermer xo'jaligining 2012-2013 yillardagi yig'ma va yilik hisobotlari hamda mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.
6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar. Bitiruv Malakaviy ishda mavzu mohiyatini yoritishga yordam beradigan 6 ta jadval, 5 uzatma tuzilib, ulardan 3 tasi bevosita ximoya jarayonida foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy kislari	Asosiy kislarni bajarish vakti	Raxbar unvoni, F. I.SH.	Imzo
<i>Kirish</i>	07.11.2013 - 15.11.2013 y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
1-bob. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning tahlilini nazariy -xuquqiy asoslari.	16.11.2013 - 30.11.2013 y.	I.f.n. Sk.Maxmudov	
<i>1.1. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlashni nazariy hamda xuquqiy asoslari.</i>	01.12.2013 - 15.12.2013 y.	I.f.n. Sk.Maxmudov	
<i>1.2.Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar tahlilini tashkil etish va hujjatlarda rasmiylashtirish tartibi.</i>	16.12.2013 - 31.12.2013 y.	I.f.n. Sk.Maxmudov	
<i>1.3. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlanishini o'ziga xos jihatlari.</i>	02.01.2014 - 15.01.2014 y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
2-bob. "Nodirbek" fermer xo'jaligida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning tahlili.	16.01.2014- 31.01.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
<i>2.1. "Nodirbek" fermer xo'jaligining umumiy tavsifi.</i>	01.02.2014- 15.02.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
<i>2.2. "Nodirbek" fermer xo'jaligida xarajatlar va ularni moliyaviy natijalarga ta'siri tahlili.</i>	16.02.2014- 28.02.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
<i>2.3. "Nodirbek" fermer xo'jaligi moliyaviy natijalarining tahlili.</i>	01.03.2014- 15.03.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
3-bob. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar hisobi va tahlilini tashkil etishni takomillashtirish masalalari.	16.03.2014- 31.03.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	

3.1. “Nodirbek” fermer xo’jaligida moliyaviy natijalarning sintetik va analitik hisobini tashkil etilishi.	01.04.2014- 15.04.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
3.2. Fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalarga salbiy ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish masalalari..	16.04.2014- 25.04.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
Xulosa va takliflar	26.04.2014- 30.04.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	01.05.2014- 05.05.2014y	I.f.n. Sk.Maxmudov	

Topshirik berilgan vaqti: 5 noyabr 2013 yil.

Rahbar:

i.f.n. Sk.Maxmudov

Bitiruvchi:

M.Xoldarov

M u n d a r i j a

bet

	Kirish	
1.	1-bob. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning tahlilini nazariy -xuquqiy asoslari.	
2.	1.1. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlashni nazariy hamda xuquqiy asoslari.	
3.	1.2.Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar tahlilini tashkil etish va hujjatlarda rasmiylashtirish tartibi.	
4.	1.3. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlanishini o'ziga xos jihatlari.	
5.	2-bob. “Nodirbek” fermer xo'jaligida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning tahlili.	
6	2.1. “Nodirbek” fermer xo'jaligining umumiy tavsifi.	
7	2.2. “Nodirbek” fermer xo'jaligida xarajatlar va ularni moliyaviy natijalarga ta'siri tahlili.	
8	2.3. “Nodirbek” fermer xo'jaligi moliyaviy natijalarining tahlili.	
9	3-bob. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar hisobi va tahlilini tashkil etishni takomillashtirish masalalari.	
10	3.1. “Nodirbek” fermer xo'jaligida moliyaviy natijalarning sintetik va analitik hisobini tashkil etilishi.	
11	3.2. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalarga salbiy ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish masalalari..	
12	Xulosa va takliflar	
13	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

MAVZU: BALIQCHI TUMANI “NODIRBEK” FERMER XO’JALIGIDA MOLIYAVIY NATIJALAR VA ULARNI TAQSIMLASH HISOBI VA UNING TAHLILI.

KIRISH

1-BOB. FERMER XO’JALIKLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR VA ULARNI TAQSIMLASH HISOBI VA UNING TAHLILINI NAZARIY -XUQUQIY ASOSLARI.

- 1.1. Fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlashni nazariy hamda xuquqiy asoslari.
- 1.2. Fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalar tahlilini tashkil etish va hujjatlarda rasmiylashtirish tartibi.
- 1.3. Fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlanishini o’ziga xos jihatlari.

2-BOB. “NODIRBEK” FERMER XO’JALIGIDA MOLIYAVIY NATIJALAR VA ULARNI TAQSIMLASH HISOBI VA UNING TAHLILI.

- 2.1. “Nodirbek” fermer xo’jaligining umumiy tavsifi.
- 2.2. “Nodirbek” fermer xo’jaligida xarajatlar va ularni moliyaviy natijalarga ta’siri tahlili.
- 2.3. “Nodirbek” fermer xo’jaligi moliyaviy natijalarining tahlili.

3-BOB. FERMER XO’JALIKLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI VA TAHLILINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.

- 3.1. “Nodirbek” fermer xo’jaligida moliyaviy natijalarning sintetik va analitik hisobini tashkil etilishi.
- 3.2. Fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalarga salbiy ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish masalalari.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Iqtisodiyotni devirsifikatsiyalash sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan xar bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy maqsadi moliyaviy natijalarni ijobiyligini ta'minlash va sof foydani oshirishdan iboratdir. Sub'ektlarining moliyaviy natijalarini ijobiy bo'lishi, ularning faoliyatida zamonaviy texnikalardan foydalanishni, xodimlarni malkasini oshirishni, ishlab chikarilayotgan mahsulotlarni tannarxini kamaytirish va sifatini oshirish imkoniyatini beradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaviy natijalarni ijobiy bo'lishini ta'minlashda buxgalteriya hisobining ahamiyati kattadir. Chunki, moliyaviy va boshqaruv hisobi orqali moliyaviy natijalarni o'zgarishiga ta'sir etuvchi xarajatlar to'g'risida o'z vaqtida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Natijada bunday xarajatlarni ortib ketmasligini ta'minlanadi. Bundan tashqari moliyaviy natijalarni o'z vaqtida tahlil qilinib, uni yaxshilash uchun ichki imkoniyatlar aniqlanadi.

SHu munosabat bilan moliyaviy natijalar hisobi va tahlili bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib hisoblanadi.

Hozorgi sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini yanada rivojlantirishi uchun ularning olgan moliyaviy natijalarining ahamiyati kattadir. Sub'ektlar olgan foydasi hisobidan faoliyatni kengaytirish hamda maqsadlarini amalga oshirishlari mumkin.

Respublikamizda bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun keng imkoniyatlar ochib berilgan. SHu sababli fermer xo'jaliklari o'z faoliyati davomida yetarli darajada daromad olib xarajatlarni amalga oshirmoqdalar. Ularning olgan foydalaridan o'z maqsadlari yo'lida mustaqil foydalanadilar.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o'z ma'ruzasida "...o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

2013 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi.”¹ deb aytdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish lozimki, bugungi kunda “Moliyaviy natijalar hisobi va tahlili” mavzusi dolzarb mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi moliyaviy natijalar hisobini to'g'ri tashkil qilish, moliyaviy natijalarni o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish, to'lov muddati kelgan moliyaviy natijalarni to'lash va tahlil qilish ishlarini amalga oshirish orqali ichki imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlashni nazariy hamda xuquqiy asoslarini o'rganish;
- fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar tahlilini tashkil etish va hujjatlarda rasmiylashtirish tartibi bilan tanishib chiqish;
- fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlanishini o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqish;
- moliyaviy natijalarni ahamiyati va aniqlash usullarini o'rganish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2014 yil 18 yanvar.

- “Nodirbek” fermer xo’jaligida moliyaviy natijalarva ularni taqimlashni holatini tahlil qilish;
- “Nodirbek” fermer xo’jaligida moliyaviy natijalarning sintetik va analitik hisobini yuritilishini o’rganish;
- fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalar hisobini buxgalteriya hisobida soddalashtirilgan usulda yuritish imkoniyatlarini o’rganish;
- fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalarga salbiy ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish masalalarini o’rganib chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti “Nodirbek” fermer xo’jaligi hisoblanadi. SHuningdek, ishda mazkur fermer xo’jaligining buxgalteriya hisobi va hisobotlaridagi ma’lumotlardan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, asosiy qism, xulosa va takliflar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning o’rganilganlik darajasi, maqsadi, ob’ekti, uslub va uslubiyoti va hajmi ko’rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida “Fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning tahlilini nazariy -xuquqiy asoslari”, bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida “Nodirbek fermer xo’jaligida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning tahlili”, bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida “Fermer xo’jaliklarida moliyaviy natijalar hisobi va tahlilini tashkil etishni takomillashtirish masalalari” yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar qismida bitiruv malakaviy ishini yozish natijasida erishilgan xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida O’zbekiston Respublikasining Qonunlari, Vazirlar mahkamasi Qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nizomlari, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqarmasining Nizomi va Yo’riqnomalari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlari, professor olimlarning mavzu doirasida olib borgan tadqiqotlaridan foydalanildi.

1-BOB. FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALAR VA ULARNI TAQSIMLASH HISOBI VA UNING TAHLILINI NAZARIY -XUQUQIY ASOSLARI.

1.1. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlashni nazariy hamda xuquqiy asoslari.

Korxona va tashkilotlarda iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka ya'ni, ijobiy moliyaviy natijaga erishishdagi asosiy omillar ishlab chiqarish xajmining son va sifat jihatdan o'sishi, eksport salohiyatini ortib borishi, asosiy vositalardan unumli foydalanish, mehnat unumdorligini ortishi va unumsiz xarajatlarni kamayishi o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy barqarorligi belgilovchi asosiy ko'rsatkich bu foyda va rentabellik ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash uchun ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish hisob ishlarini to'g'ri tashkil qilinishi, mavjud ichki va tashqi imkoniyatlardan unumli foydalanish, xarajatlarni kamaytirish alohida ahamiyatlidir.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatlarini tashkil qilishda o'z mablag'laridan unumli foydalanishga erisha olgan taqdirdagina ijobiy moliyaviy natijaga erishadilar hamda to'lov qobiliyatlarini mustaqamlanishini ta'minlaydilar.

Moliyaviy natija deyilganda korxona va tashkilotlarning ma'lum hisobot davrida, ularning tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishi tushuniladi. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi hamma daromadlar va xarajatlarni hisoblash hamda bir biriga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilishga, uni xalqaro andozalarga moslashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bu sohaga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish bilan birga me'yoriy huquqiy asoslari belgilab berdi.

Ushbu qonunning 4-moddasida belgilanishicha "Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va harajatlar, foyda, zararlar

hamda ularning ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridir"².

Qonunda daromad, xarajat, foyda va zararlar buxgalteriya hisobi ob'ekti deb belgilab berilgan. Demak, moliyaviy natijalar hisobini tashkil qilishga alohida ahamiyat berishimiz kerakligini belgilab berildi. YUqoridagilarni inobatga olgan xolda Moliya Vazirligi 1999 yil 5 fevralda "Xarajatlar tarkibi to'g'risida"gi Nizomni ishlab chiqdi va amaliyotga joriy qildi. Bu esa moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi deb aytishimiz mumkin.

Moliyaviy natijalar hisobi tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari quyidagilar, ya'ni 1999 yil 5 fevralda Vazirlar Maxkamasining 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxiga qo'shiladigan ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi to'g'risida»gi Nizom hamda 2, 3 va 4- Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida yoritilgan.

Moliyaviy natijalarni tavsiflovchi moliyaviy hisobot elementlarini e'tirof etish jarayoni O'zbekiston Respublikasi 2-BHMSda yoritilgan. Moliyaviy hisobot elementlari – bu moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan moddalarni umumlashtiruvchi yoki moliyaviy hisobotlarga kiritilishi lozim bo'lgan moddalarning guruhlaridir.

Moliyaviy ma'lumotlarni e'tirof etish mezonlari sifatida bu mezonlar kontseptual asoslar tarkibida yoritilgan. E'tirof etish - bu moddaning moliyaviy hisobotga kiritilishi jarayonidir. E'tirof etilgan moddaga nom va miqdoriy o'lcham beriladi. Elementni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish uchun quyidagi mezonlarga mos kelishi kerak:

- elementni miqdoriy o'lchovga ega bo'lishi va ular qiymatini asoslangan ravishda baholash mumkinligi;
- iqtisodiy manfaat keltirish yoki uni chiqib ketishi ehtimolligining mavjudligi³.

² O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Konun 1996 yil 30 avgust

³ A.Abdullaev, E.Mo'yidinov, M.YUsupova B.Soliyev "Moliyaviy hisob" 70-bet.

O'zbekiston Respublikasining №2-sonli buxgalteriya hisobi milliy standartida daromadlar tushunchasi va ularni hisobga olish tartibini aniqlash ko'zda tutilgan. Ushbu standartda daromadlarni tan olish mezonlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra asosiy xo'jalik faoliyatidan daromadlar:

- iqtisodiy manfaatlarning kelgusida olinish imkoniyati mavjud bo'lsa, hamda bu manfaatlar aniq va ishonchli ravishda o'lchanishi mumkin bo'lgan lahzada tan olinadi.

Moliyaviy hisobotning kontseptual asoslariga binoan 7 ta moliyaviy hisobot elementlari ko'zda tutilgan bo'lib, bular-buxgalteriya balansiga to'g'ridan-to'g'ri tegishli bo'lgan 3 ta element: aktivlar, majburiyatlar xususiy kapital, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tegishli bo'lgan 4 ta element - daromad, xarajat, foyda va zararlardir.

Moliyaviy hisobotga tegishli bo'lgan elementlar, daromad, xarajat, foyda, zararlarni shakllanishini ko'rib chiqamiz. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish kontseptual asosga va "Asosiy xo'jalik faoliyatidan daromadlar" nomli 2-son BHMSda belgilanishicha, daromadlar asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat natijasida aktivlarni kelib tushishi yoki majburiyatlarni kamayishi orqali iqtisodiy resurslarni ko'payishidir. Ular kelgusida xususiy kapitalni ko'payishiga olib keladi.

Daromadlar turli aktivlarni ko'payishi ko'rinishida yuzaga keladi; bular nafaqat pul mablag'lari, balki, realizatsiya qilingan tovar va xizmatlar o'rniga olingan tovarlar va xizmatlar ham bo'lishi mumkin; agar tovar va xizmatlar haqi xaridor tomonidan to'lanmagan bo'lsa, bu, debitorlik qarzlari ham bo'lishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda daromadlar joriy va uzoq muddatli aktivlar ko'rinishida yuzaga keladi.

Xarajatlar - bu aktivlarning kamayishi yoki foydani ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z zimmasiga olish orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir.

Xarajatlar asosan kelgusida foyda olish uchun qilinadi. Agar korxonaning yetarli miqdorda aktivlari bo'lsa xarajatlar aktivlarni kamayishi hisobiga biroq,

aktivlari yetarli miqdorda bo'lmasa majburiyatlar hisobiga qilinishi mumkin. Majburiyatlar ish xaqi bo'yicha, mol yetkazib beruvchilar oldida va bank krediti ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Agar daromadlardan xarajatlar oshib ketsa natijada xususiy kapitalni kamayishiga olib keladi. Korxonalarda foyda manbalarini ko'paytirishda xarajatlarni to'g'ri tasniflab, aloxida hisob ob'ekti sifatida qarab tejamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foyda - bu xo'jalik sub'ektiga ta'sir etadigan asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat, hodisalar, sharoitlar natijasida kapitalning ko'payishi bo'lib, xususiy kapitalga to'lanadigan badallar bundan mustasnodir.

Xar qanday faoliyat natijasida olingan foyda xususiy kapitalga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususiy kapitalni boshqacha ko'payishi ya'ni ta'sischi badallariga hisobiga ko'payish foyda hisoblanmaydi.

Zararlar - bu asosiy faoliyat va barcha boshqa operatsiyalar, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo'lib, xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.

Bizga ma'lumki, aktiv bu kelajakda foyda keltiradigan, xo'jalik sub'ekti tomonidan nazorat qilinadigan va kelgusida foyda keltirishi extimoli bo'lgan iqtisodiy resurslardir. Agar aktivni foyda keltirish extimoli nolga teng bo'lsa, bu aktivlar xo'jalik sub'ekti tomonidan zarar sifatida tan olinishi kerak.

Demak, daromad, xarajatlarning hisob va nazoratini to'g'ri tashkil qilish bevosita xo'jalik sub'ektining foyda(zarar)siga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Foyda va zararlarni aniqlash va hisob qilish bevosita moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni tuzish jarayonida amalga oshiriladi. Chunki, daromad, xarajatlarning miqdori, ko'rilgan foyda yoki zararni aniqlash uchun "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"dan ya'ni №2 formadan foydalaniladi. Demak, bu elementlarning shakllanishi moliyaviy natijalarni shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foydaning ahamiyati juda katta. Foyda olishga intilish tovar ishlab chiqaruvchilarni iste'moliga kerak bo'lgan mahsulot ishlab

chiqarish hajmlarini oshirishga, ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni kamaytirishga undaydi. Erkin raqobat sharoitida bu orqali nafaqat tadbirkorlarning maqsadiga, balki ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishiga ham erishiladi. Zararlarning ham o'z o'ri bor. Ular mablag'larni yo'naltirishda, ishlab chiqarishni tashkil qilishda va mahsulotni sotishdagi xatolarni yoritib beradi.

Moliyaviy natijalarni shakllanishi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan, «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi yangi Nizom bilan tartibga solinadi. Mazkur Nizomda xarajatlarni guruhlashtirish va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibida to'liq tushunarli yoritilganki, bu o'z navbatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun tegishli hisobot davrida jami ishlab chiqarish xarajatlari va olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq ishlov berish tizimi va usullarini ishlab chiqish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan tegishli soliq qonunlari va me'yoriy hujjatlari talabiga javob beradigan moliyaviy hisobot tizimi imkoniyatini yaratdi. SHuni ta'kidlash lozimki, ushbu Nizom tegishli xalkaro standartlariga hamda respublikamiz xususiyatlarini inobatga olingan holda yaratilgan. Nizom hozirgi kunning talablariga javob berib, moliyaviy natijalarni aniqlashda xalqaro tamoyillarga mos keladi, hamda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 24 yanvarda 1209 sonli raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida» gi buyrug'i hozirgi kunda moliyaviy hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha yo'riqnoma hisoblanadi. Unga ko'ra moliyaviy hisobotlarning boshqa turlari kabi 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti»ga ham birmuncha o'zgartirish kiritildi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori bilan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni

shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 11.06. 2003 yilning №261, 16.06. 2003 yilning №279, 15.10. 2003 yilning № 444, 25.12. 2003 yilning №567 va 28.12. 2004 yilning №610 Qarorlariga muvofiq o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 26 mart 1994 yilgi №164 Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisobotini tasdiqlash va buxgalteriya hisobining schetlar tizimi to'g'risida»gi Nizomning 1, 2 va 3-moddalari bekor qilindi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar, Qonun, Nizom va Yo'riqnomalar korxonalarda moliyaviy natijalar hisobini yuritishning ham nazariy ham huquqiy asosini beradi.

Korxonalarda moliyaviy natijalarning buxgalteriya hisobini asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- har bir xo'jalik muomalasi natijasida erishilgan daromad va xarajatlarni tan olish mezonlarini belgilash;

- tan olingan daromad va xarajatlarni mos kelish tamoyiliga asosan ro'yxatga olish yoki rasmiylashtirish;

- hisobot davri davomida erishilgan daromad va amalga oshirilgan xarajatlarni mutanosib ravishda moliyaviy hisobotda aks ettirishni nazorat qilish;

- qonunchilikka rioya qilish va bajarilgan xo'jalik muomalalari maqsadlilik ustidan nazorat qilish uchun moliyaviy hisobotlar orqali tashqi foydalanuvchilarga ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Shunday kilib, aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy natijalar hisobi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun, «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi, hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom, buxgalteriya hisobining milliy standartlari №2, №3 va №4 asosida yuritiladi.

1.2. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar tahlilini tashkil etish va hujjatlarda rasmiylashtirish tartibi.

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda, shu jumladan fermer xo'jaliklarida ham yil oxirida moliyaviy natija aniqlanadi. Moliyaviy natija - fermer xo'jaliklarining yil davomidagi faoliyati natijasida olgan foydasi yoki ko'rgan zararidir. SHuningdek, moliyaviy natija nafaqat fermer xo'jaliklarining butun faoliyati, balki ayrim sohalari, tarmoqlari va xo'jalik operatsiyalar bo'yicha ham aniqlanadi. Masalan, fermer xo'jaliklarida quyidagi operatsiyalar bo'yicha ham moliyaviy natija aniqlanishi mumkin:

- 1)Mahsulot (ish, xizmat)larning sotishdan.
- 2)Asosiy vositalarni sotish va boshqa hisobdan chiqarishlardan.
- 3)Boshqa aktivlarni sotishdan.
- 4)Boshqa turli xil operatsiyalar bo'yicha.

Xar bir turdagi operatsiyalar bo'yicha moliyaviy natijani aniqlanishi, fermer xo'jaliklarida olingan daromadning xarajatlar bilan taqqoslanishini, xarajatlarning qoplanish darajasini aniqlanishini va har bir xo'jalik operatsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Umumiy holatda, moliyaviy natijani aniqlash uchun daromad (tushum) xarajat bilan taqqoslanadi, bunda daromad xarajatlardan katta bo'lsa, farq summasi foyda, agar daromad xarajatlardan kichik bo'lsa, farq summasi zarar bo'ladi. Mahsulot sotish operatsiyalari bo'yicha moliyaviy natijani aniqlashda, sotilgan mahsulotlardan tushgan tushum (mahsulotni sotish bahosidagi qiymati) sotilgan mahsulot tannarxi bilan taqqoslanadi. Tushum katta bo'lsa, farq summasi foyda, kichik bo'lsa farq summasi zarar bo'ladi.

Bugungi kunda har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi bu foyda olishdir. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarishni hamma bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir. Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida namoyon bo'ladi. Korxona xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari, olingan foyda summasi va rentabellik darajasi bilan ifodalanadi. Foyda

korxonalarni ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini tavsiflovchi eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Foyda – korxonalar faoliyatining samarasini ifodalovchi ko'rsatkichdir. U iqtisodiy munosabatlarning muhim kategoriyasi bo'lib, unga quyidagi uch funktsiya tegishli.

Birinchidan, korxona xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich;

Ikkinchidan, foydani taqsimlash va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan, taraqqiy etishga bo'lgan intilishlarni rag'batlantirish funktsiyasi;

Uchinchidan, korxona moliyaviy resurslarini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri ekanligi.

Foyda – korxonaning ijtimoiy rivojlanishini, ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishning, aylanma mablag'lar o'sishini moliyalashtirishning asosi hamda turli darajadagi byudjetlarning daromad qismini shakllantirishning eng muhim manbasi hisoblanadi.

Moliyaviy natija ko'rsatkichlaridan yana biri rentabellik hisoblanadi. Rentabellik, korxona foydasidan farqli o'laroq, ishbilarmonlik faoliyatining samaradorligini ifodalaydi. Rentabellik – nisbiy ko'rsatkich bo'lib, korxonaning daromadlilik darajasini aks ettiradi. Bozor iqtisodiyotida rentabellik ko'rsatkichining sistemasi mavjud.

Agar, foyda absolyut summada ifodalansa, rentabellik ishlab chiqarish intensivligining nisbiy ko'rsatkichidir. U nisbiy alohida olingan bazaning foydalilik darajasini aks ettiradi.

Hozirgi sharoitda rentabellikni oshirishning muhim faktori, resurslardan oqilona foydalanib ishlash hisoblanadi. Bu tannarxni kamayishiga va o'z navbatda, foydaning o'sishiga olib keladi. Gap shundaki, hozirgi sharoitda resurslarni tejash hisobiga ishlab chiqarishni rivojlantirish, resurslarni yangi joylarini aniqlash va ishlab chiqarishga yangi resurslarni jalb qilishdan ko'ra, arzonga tushadi. Tannarxni kamaytirish, ishlab chiqarish rentabelligini va foydaliligini oshirishining asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy natijalarni taxlil qilishning zarurati bulib, ularni o'rganish yordamida korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga baho berilishi va biror xulosaga kelinishi mumkin. Bu o'z navbatida korxona faoliyatida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda va istiqboldagi rivojlanish rejalarini tuzishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan foydalangan holda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida foyda ko'rsatkichining to'g'ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Mazkur foyda hisobidan maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan fondlar, rezerv fond tashkil bo'ladi, kapital qo'yilmalar moliyalashtiriladi va ijtimoiy tadbirlar amalga oshiriladi.

Korxona tomonidan olinayotgan foyda qanchalik ko'p bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan sohalarga ham shunchalik ko'p mablag' ajratilishi va ularga yanada yaxshiroq moliyalashtirish imkoniyati vujudga keladi. Biroq bizga yaxshi ma'lumki, moliyaviy natijalar miqdoriga juda ko'p omillar ta'sir etadi.

Moliyaviy natijalarni taxlil qilishning ahamiyati shundaki, taxlil qilish orkali korxona tulov kobilyatini yaxshilash va moliyaviy barkarorligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi bu foyda olishdir. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarishni hamma bosqichlarining iqqisodiy kategoriyasidir. Foyda iqqisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida namoyon bo'ladi.

Foyda (daromad) iqqisodiy harakatning zaruriy sharti maqsadi sifatida qaraladi. Foyda bu daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq bo'lib, uning o'zgarishi daromad va xarajatlarning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi.

Daromad va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy xususiyatlarini belgilaydi, ammo ularni moliyaviy natijalar hisobotida aks ettirishda talab qilinadigan mezonlarni aniqlashni maqsad qilib qo'ymaydi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o'zaro farqlanishidagi holatta baho beriladi. Moliyaviy natijalar foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo'yicha o'zgarishlari o'rganiladi. Foyda va zararlarning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash

yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo'lga qo'yishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik ko'rsatkichi va uning omilli tahlili o'tkaziladi.

Tahlil moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trendli tahlil va ko'rsatkichlarni aniqlash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qishda uning satrlar bo'yicha ko'rsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiy qatorlarning qiymat ifodasi, hisobot davri va o'tgan yilning shu davri bo'yicha ma'lumotlarga umumiy izoh beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natijalarning shakllanishini bir qatorli va ko'p qatorli usullarida o'zaro farqlanishlarga va nisbiy o'zgarishlar baho beriladi.

Gorizontal tahlilda esa moliyaviy natijalarning bo'ylamasiga tarkiblanishi va ularning o'zgarishlari o'rganiladi.

Asosli yoki trend tahlilida moliyaviy natijalar va ularning yillar bo'yicha o'zgarishi, dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi.

Moliyaviy natijalar tahlili tashqi va ichki sub'ektlar tomonidan olib boriladi. Ichki sub'ektlar tomonidan olib boriladigan tahlil ichki moliyaviy tahlil qatoriga kiritilib faqat shu jamiyatning xodimlari tomonidan olib boriladi.

Moliyaviy hisobotning betarafligi shundaki, undan ham ichki ham tashqi axborot foydalanuvchilarning manfaatlari mujassamlashgan. Ichki moliyaviy tahlilda korxonada ko'proq moliyaviy natijalarni yuzaga chiqish o'rni, shakli bo'yicha o'zgarishlariga ahamiyat beriladi. YA'ni, ularning analitik qatoriga ko'proq ahamiyat beriladi.

Tashqi tahlil sub'ektlariga esa soliq organlari, bank tashkilotlari, aktsionerlar, mulk egalari, investorlar, shuningdek, korxona faoliyati bilan bilvosita qiziquvchi uchinchi shaxslar, erkin sohibkorlar kirishi mumkin.

Ularni ko'proq korxonaning foydalilik darajasi va uning yillar bo'yicha o'zgarishlari qiziqtiradi. Agar aktsiya egasi bo'ladigan bo'lsa, sof foyda va dividend to'loviga tortiladigan foyda summasi, soliq idorasini soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda va unga qayta qo'shiladigan xarajat moddalari, qarshi tomon,

xaridor va buyurtmachilar yoki sheriklarni korxonaning yil yakuni bo'yicha iqtisodiy foydasi va hakazo.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning moliyaviy natijalarini tahlil etishda moliyaviy tahlilning eng asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning foydalilik darajasiga baho berish;
- korxonaning moliyaviy natijalarining tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- biznes rejada belgilangan foydalilik darajasiga erishilganligi va unga ta'sir etgan omillarni o'rganish hamda baho berish;
- foydaning shakllanishi va ishlatilishining asoslanganligini tekshirish;
- foydaning ko'paygan yoki kamayganligiga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan va boshqa faoliyatlardan erishilgan natijaning ta'sir etishini aniqlash;
- korxonaning yalpi foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan foydaning shakllanishiga va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning sof foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda baho berish;
- sof foydani ko'paytirish yo'nalishlarini belgilab berish;
- korxonaning rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning umumiy rentabellik darajasini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va hakoza.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar tahlilida buhgalteriya hisobining o'ziga xos vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy natijalarni iqtisodiy asoslangan holda aniqlanishini ta'minlash.
2. Moliyaviy natijalarni xar bir ko'rsatkichini to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash.

3. Moliyaviy natijalarni hisob registrlarida to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirish.

4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborot bilan fermer xo'jaliklari boshqaruvchilarni va boshqa foydalanuvchilarni to'liq va vaqtida ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarda moliyaviy natijalarni tahlil qilishning ahamiyati katta bo'lib, moliyaviy natijalarni ijobiyligini ta'minlashda tahlilning zarurati va roli kattadir.

1.3. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlanishini o'ziga xos jihatlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona o'zining ishlab chiqarish tijorat faoliyatidan ko'proq daromad olishdan manfaatdor. Ammo, nafaqat foyda balki, zarar ham korxona xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi hisoblanadi. Bunday holat korxona samara bermaydigan ishlab chiqarish usullaridan foydalansa yoki ishlab chiqarilgan mahsulot iste'molchilar talabini qondirmasa ya'ni, mahsulot sifati past bo'lsa ro'y berishi mumkin. Xo'jalik yuritishning hozirgi tizimi sharoitida foyda ko'rsatkichi korxonaning asosiy va aylanma mablag'laridan samarali foydalanishni, ya'ni ishlab chiqarishni talab hamda ehtiyojga qarab muvofiqlashtirilishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot iste'molchi talabiga javob bera oladigan bo'lishini talab etadi.

Fermer xo'jaliklari mahsulot sotishdan olgan daromadi evaziga o'zining hamma xarajatlarini qoplashi va undan tashqari foyda ham olishi kerak. Foydaning bir qismi soliqlar hamda boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun sarflanadi, qolgani esa korxona ixtiyorida qoladi va faoliyatni ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy natijalarni hisobga olish fermer xo'jaliklari faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi. Moliyaviy natijalar hisobi ma'lumotlarini aniqlashdan asosiy maqsad ularni ana shu axborotdan foydalanuvchilarga to'liq hamda aniq moliyaviy axborot bilan ta'minlashdir. Bu maqsadga erishish uchun moliyaviy natijalar va uni hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Turli tijorat faoliyati natijasida olingan foyda miqdorini har oyda hamda yil boshidan o'z vaqtida va to'g'ri hisob-kitob qilish, ya'ni korxonaning yakuniy moliyaviy natijasi foydami yoki zarar ekanligini bilish;

2. Moliyaviy natijalar bilan bog'liq muammalarni va ularning taqsimlanishini buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida va tegishli registrlarda to'g'ri aks ettirish;

3. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni foydalanuvchilarga o'z vaqtida taqdim etish.

Fermer xo'jaliklari tomonidan olinadigan foydaning tarkibini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki qaysi faoliyat turidan korxona foyda olayotganligi va qaysi faoliyat turidan zarar ko'rayotganligini bilish korxonaning moliyaviy iqtisodiy barqarorligiga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi.

Foydaning quyidagi turlari bor:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda;
2. Asosiy faoliyatdan olingan foyda;
3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;
4. Soliqlarni to'lashdan oldingi foyda;
5. Sof foyda.

Mahsulotni sotishdan yalpi foyda (YAF) korxonaning mahsulotni sotishdan olgan daromadini tavsiflaydi va mahsulot sotishdan tushgan sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farq sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$YAF = ST - MT \quad \text{yoki}$$

2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» bo'yicha 070-satr = 050-satr – 060-satr.

Mahsulot sotishdan sof tushum (ST) – mahsulot sotishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i chiqarilgandan keyingi sof tushum summasidir. Bu ko'rsatkich korxonaning mahsulotni sotishdan olgan daromadidir.

Sotilgan mahsulot tannarxi (MT) – korxonaning mahsulotni chiqarishga qilgan xarajatlari, u ishlab chiqarish maqsadidagi bevosita va bilvosita, moddiy va

mehnat sarflarini o'z ichiga oladi. Savdo tashkilotlari bunga sotilgan tovarlarning xarid qiymatini ham qo'shadilar.

Asosiy faoliyatdan olingan foyda (As.f.f.) korxonaning asosiy faoliyatidan (ishlab chiqarish korxonalarida – mahsulotni chiqarish va sotish, savdoda – mahsulotni sotish, qurilishda – tugallanmagan qurilish ishlari va shu kabilar) olgan foydasini tavsiflaydi.

Bu foydani aniqlash uchun yalpi foydadan davr xarajatlari (D_{xar}) va boshqa xarajatlar (B_{xar}) chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (B_{dar}) quyidagi formula bo'yicha qo'shilishi kerak

$$As\ f.f. = YAF - D_{xar} + B_{dar} - B_{xar}$$

yoki 2-sh., 110-satr = 070 – 080 – 090 – 100 satrlar.

Davr xarajatlari – ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlardir. Bularga boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish va umumxo'jalik maqsadidagi boshqa xarajatlar kiritiladi. Savdoda davr xarajatlari muomala chiqimlari kiritiladi.

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari va xarajatlari mahsulot joylanadigan idishlarga bog'liq ishlar, tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha yo'qotish va kamomadlar, asosiy vositalar va boshqa mol-mulk realizatsiyasidan zararlar yoki daromadlar, oldingi yillar operatsiyalari bo'yicha zararlar yoki daromadlar va boshqalar jarayonida yuzaga kelishi mumkin.

Umumxo'jalik jarayonidan olingan foyda (Umum f.f.) – bu asosiy faoliyat plyus (minus) moliyaviy faoliyat natijalarini tavsiflovchi moliyaviy natijadir. Moliyaviy faoliyat natijalariga: dividendlar, olingan va to'langan foizlar, valyuta kursidagi farqlar kiritilib, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Umum.\ f.f. = As\ f.f. + Mol.\ f.f. - Mol.f.xar.$$

yoki 2-sh., 150-satr = 110 (120 + ... + 145) satrlar.

Soliqlarni to'lashdan oldingi foyda (S.t.ol.f.) – bu favqulodda foyda va zararlarini hisobga olib, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S.t.ol.f. = Umum\ f.f. + Ff - Fz$$

yoki 2-sh., 170 satr = 150 – 160 satr

Favqulodda foyda va zaralar – korxona asosiy faoliyati doirasiga kirmaydigan hodisalar natijasida yuzaga kelgan va kutilmagan daromad va xarajatlardir.

Sof foyda (SF) – bu soliqlar to'langandan so'ng korxona tasarrufida qoladigan foyda summasi bo'lib, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$SF = S \text{ t.ol.f.} - \text{Foyda solig'i} - \text{Boshqa soliqlar}$$

yoki 2-sh., 200-satr = 170 – 180 –190 satrlar.

Foydaning taqsimlanishi deganda uning iste'mol va jamg'arishga yo'naltirilishi, joriy davr foydasining soliqlar to'lovi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va zahiralashga hamda kapital egalari o'rtasidagi shartlar, kelishuvlarga binoan taqsimlanishi tushuniladi.

Foyda quyidagicha taqsimlanadi:

- Soliq qonunchiligiga muvofiq davlat byudjetiga soliqlar, yig'imlar va to'lovlarga;
- Ishlab chiqarishni rivojlantirish va zahiralashga;
- Aktsiya va kapital egalari dividendlar to'lashga.

Korxona o'zining hisob foydasidan, avvalo davlat oldida hisob beradi va o'zining ixtiyorida hamda tasarrufida bo'lgan foyda summasini aniqlaydi. Foydadan olingan soliqlar qat'iy stavkalarda foizlarda undiriladi. Hisob foydasining qolgan qismi korxona sof foydasi sifatida uning erkin belgiloviga (aktsionerlar umumiy yig'ilishining qarori va ichki nizomiga) muvofiq taqsimlanadi.

Sof foydadan ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga oid sarflar aktsionerlarning umumiy yig'ilishida hisob berish hamda ularning roziligini olish asosida belgilanadi.

Sof foydaning qolgan qismi chiqarilgan aktsiyalarning turiga qarab va ularning imtiyozli shartlari asosida taqsimlanadi. Dastlab imtiyozli aktsiya egalari oldindan kafolatlangan foizlarda to'lovlar hisobga olinadi, so'ngra oddiy

aktsiya egalariga dividend foizlari va summalari e'lon qilinadi. Foydaning taqsimlanmagan qismi korxona uchun taqsimlanmagan foyda sifatida, agar korxona nochor ahvolda bo'lsa, qoplanmagan zarar sifatida keyingi hisobot yiliga o'tkaziladi.

2-BOB. “NODIRBEK” FERMER XO’JALIGIDA MOLIYAVIY NATIJALAR VA ULARNI TAQSIMLASH HISOBI VA UNING TAHLILI.

2.1. “Nodirbek” fermer xo’jaligining umumiy tavsifi.

Mamlakatimizda islohatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning bozor qonunlari asosida faoliyat ko’rsatishini ta’minlamoqda. Qishloq xo’jaligida amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida shakllangan va erkin raqobatga asoslangan xo’jalik yuritishning ustivor yo’nalishi bo’lgan fermer xo’jaliklari ishonchli faoliyat ko’rsatmoqda. Fermer xo’jaliklarining qishloq xo’jalik mahsulotlari yetishtirishdagi salmog’i yildan-yilga oshib bormoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer xo’jaliklarida buxgalteriya hisobini shunday tashkil etish kerakki, u tejimli bo’lib, kam mablag’ sarflangan holda ichki va tashqi foydalanuvchilarni ko’proq axborotlar bilan ta’minlasin.

“Yurtimizda qishloq xo’jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, yer va suv resurslari bo’yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to’g’ri yo’l – qishloq xo’jaligini intensiv asosda rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash, desam, o’ylaymanki, barchangiz mening fikrimga qo’shilasiz.”⁴.

Yuqorida aytib o’tilgan o’zgarishlar va yutuqlarimiz o’z navbatida, buxgalteriya hisobida tub o’zgarishlarni talab qiladi. Buxgalteriya hisobi xalqaro biznes tili sifatida davlat qonunlarining bajarilishini kafolatlashi, tadbirkorlikni rivojlantirishiga, mulkni saqlash va ko’payishiga xizmat qilishi, manfaatdor (investorlar, aktsiyadorlar, banklar, fondlar, mol yuboruvchilar, mol oluvchilar, rasmiy organlar va h.k.) lar tomonidan muhim iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda (kapitalini investitsiya qilish, bozorga chiqish, xodimlarni yollash, soliq siyosati,

⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. 2014 yil 18 yanvar.

moliyalash manbalarini qidirib topish, hisoblashishlar va h.k.) zarur bo'ladigan to'liq va ishonarli axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berish kerak.

Bitiruv malakaviy ishida Baliqchi tuman Nodirbek fermer xo'jaligida buxgalteriya hisobini yuritishning bugungi holati bilan tanishib chiqishni lozim topdik. Baliqchi tumanidagi "Nodirbek" fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-3342 sonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 oktyabrdagi "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 607-sonli qaroriga asosan Baliqchi tumanida tashkil etilgan fermer xo'jaliklaridan biridir.

"Fermer xo'jaliklari to'g'risidagi qonun"ga muvofiq "Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs xuquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sube'ktidir".

Fermer xo'jaliklari bugungi kunda qonun yo'li bilan mustaqil xo'jalik yurituvchi sube'kt va yuridik shaxs xuquqiga ega bo'lib, xo'jalik yuritishning yangicha usullarini ishlab-chiqarishga joriy qilishlari xar tomonlama zaruriy xolatga aylandi. Shuning uchun ham fermer xo'jaliklari moliya xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya xisobi tugrisida"gi qonunning 1-moddasida "Buxgalteriya hisobi va hisobotni tuzish bilan bog'lik bo'lgan munosabatlar ushbu qonun va boshka qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi" deyilgan.

Qonunning 15-moddasida esa o'zining yoki o'zgalarning majburiyatlarini ta'minlash uchun garovga berilgan mol-mulk kiymati, shu jumladan, pul mablag'lari fermer xo'jaliklari tomonidan boshka aktivlardan alohida hisobga olinadi. Garovga olingan mol-mulk kiymati, garov sifatida qabul qilib olingan pul

mablag'lari va valyuta boyliklari qiymati alohida balansdan tashkari xisobvaraqalarda aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobining vazifalaridan biri bo'lib moliyaviy, soliq va boshqa hisobotlarni tuzish hisoblanadi. SHuning uchun haqqoniy va talab darajasidagi hisobotlarga ega bo'lish uchun hisob-kitoblardagi mavjud kamchiliklarni tugatib ularni qonun talablari darajasida tashkil etishga erishish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24-martdagi PF- 3226 – son “Qishloq xo'jaligida isloxotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida”gi va 2004-2006 – yillarda “Fermier xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida”gi farmonlarida, Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi va majlis qarorida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ustivor yo'nalishi sifatida belgilangan. SHuningdek, hisob va hisobot tizimini takomillashtirish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan.

Fermer xo'jaligining xo'jalik moliyaviy faoliyatini tashkil etuvchi quyidagi jarayonlar hisob obe'ktlari bo'lib hisoblanadi, masalan:

- asosiy vositalar;
- moddiy qiymatliklar (em, xashak mineral o'g'itlar, inventarlar va hakazo);
- ishlab-chiqarish jarayoni;
- tayyor maxsulotlarni sotish va shunga doir hisob-kitoblar;
- bank, moliya, soliq organlari va boshqalar bilan hisob-kitob muomalalari;

Biz o'rganayotgan “Nodirbek” fermer xo'jaligida ushbu holatlar qay darajada yondashilganligini quyida ko'rib o'tamiz.

Ushbu fermer xo'jaligi Baliqchi tumanidagi Siza qishloq fuqorolar yig'inida joylashgan bo'lib, asosan dexqonchilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadi. Fermer xo'jaligi tuman markazidan 8 kilometr va shaxar markazidan esa 18 kilometr uzoqlikda joylashgan.

Fermer xo'jaligi 2011 yil 20 avgustdagi Baliqchi tumani xokimligi xuzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarining ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasida №0447 reyestr raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiy-inqiroz sharoitida inqirozga qarshi keng qamrovli ishlar olib borilishi qishloq xo'jaligini ham qamrab olgan. Fermer xo'jaligiga ajratib berilgan yer maydonlarini qayta ko'rib chiqilishi natijasida ularning balansida bo'lgan ekin maydonlar ko'paydi. Ya'ni yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga, puxta o'ylanagan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli xududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi. Ana shu ishlar natijasida fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g'allachilikda 65,6 gektarga yetdi. Bu ko'rsatkich 2012 yilda paxtachilikda 31.2 gektarni, g'allachilikda esa 32,4 gektarni tashkil qilmoqda. Fermer xo'jaligida maxsulot yetishtirish, ekin turlari haqidagi ma'lumotlarni 1-jadvalda ko'rib o'tamiz.

1-jadval

Baliqchi tumanidagi "Nodirbek" fermer xo'jaligining ekin maydonlari va uning tarkibi.

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012y	%	2013y	%
1	Jami ekin maydoni	ga	74,2	100	53,0	100
1.1	shundan: Paxta	ga	33.7	45,4	20,0	37,7
	Hosildorlik	ts\ ga	31,9	x	41,9	X
	Yalpi hosil	ts	1076	x	8389	X
1.2	Don	ga	40.5	54,6	33	62,3
	Hosildorlik	ts\ ga	53,7	x	35	X
	Yalpi hosil	ts	1411	x	1155	X
2.	Jami xodimlar soni	nafar	42	100	28	100,0
2.1.	Paxtachilikda	Nafar	34	80,9	21	75
	Donchilikda	nafar	8	19,1	7	25

"Nodirbek" fermer xo'jaligi asosan paxta va bug'doy yetishtirish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik hisoblanib, xo'jalikning jami ekin maydoni 2012 yilda 63,6 gektarga teng bo'lib, asosan paxta va bug'doy yetishtirish bilan shug'ullanib

kelmoqda. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalik bug'doy yetishtirish bo'yicha 2011 yilda ijobiy natijalarga erishgan deb bo'lmaydi. Xo'jalikda 2012 yili 74,2 gektar yerga paxta ekilgan bo'lsa, xar bir gektardan hosildorlik 31,9 tsentnerdan, 2013 yilda ekilgan maydon 20,0 gektarga ekilgan bo'lib, xar bir gektardan hosildorlik 41,9 tsentnerga yetgan bo'lib, 10 tsentnerga ortgan va xo'jalik reja topshiriqlarini ortig'i bilan bajargan. "Nodirbek" fermer xo'jaligi asosan paxta va bug'doy yetishtirish bilan shug'ullanib kelmoqda.

Xo'jalikda don maxsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha ham 2013 yilda 2012 yilga nisbatan ancha ijobiy natijalarga erishilgan deb bo'lmaydi. 2012 yilda 40,5 gektar maydonga bug'doy ekilib, xar gektar maydondan 53,7 tsentnerdan jami 1411 tsentner hosil olingan bo'lsa, 2013 yilda 33,0 gektar maydonga bug'doy ekilib, 1155 tsentner hosil olingan va hosildorlik 35 tsentnerga tushib ketgan, 18,7 tsentnerga keskin kamaygan.

Balans-korxona mablag'lari va qoplash manbalarining ma'lum davrdagi holatini ko'rsatadi. Hisob-kitob ishlarini xalqaro an'anaviy talablar bo'yicha yuritishga oz bo'lsada yaqinlashtirilishi hamda 2002 yilda joriy qilingan va korxonalar tuzadigan yangi buxgalteriya balansi bozor iqtisodi sari qo'yilgan dastlabki qadamdir. Zamonaviy ish yuritish shart-sharoitiga mos keluvchi balansda aktiv va passiv tomonlari bo'ladi. Aktiv tomonida korxona mablag'lari, passivida esa xo'jalikning o'ziga tegishli manbalar, kreditga va qarzga olingan boshqa manbalar ko'rsatiladi. Aktiv mablag'larning oshishi, passivdagi manbalar va foyda (daromad)ning ko'payishi bilan bog'liqdir. Balansning barcha bo'lim va bandlarini chuqur o'rganish moliyaviy ahvolni to'liq o'zlashtirishning asosini tashkil qiladi.

Ma'lumotlarda ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish uchun zarur bo'lgan va hisobot tuzish davriga qiymat shaklidagi mol-mulki hamda uni qoplashga jalb qilingan manbalari o'z aksini topadi. Balansdagi har bir band va bo'lim korxonalarning moliyaviy holatiga bog'liq, shuning uchun ham uni chuqur o'rganish lozim. Buxgalteriya balansini o'rganish asosida bir qator ko'rsatkichlar haqida xulosalar chiqarish mumkin.

“Nodirbek” fermer xo’jaligi buxgalteriya hisobi fermer xo’jaliklarida ham me’yoriy-xuquqiy xujjatlarda ko’rsatilgan umumqabul qilingan tamoyillar asosida tashkil qilinadi. Xo’jalikning buxgalteriya hisobi tizimiga baho berishda uning buxgalteriya balansi tuzilishi va tarkibini o’rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Quyidagi jadvalda “Nodirbek” fermer xo’jaligining buxgalteriya balansi tahlili bilan tanishib chiqamiz.

Xo’jalikning balans ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, “Nodirbek” fermer xo’jaligi hisobida asosiy vositalar qiymati 2013 yilda eskirish hisobiga kamaygan, eskirish hisobiga uning yil oxiridagi qiymati 17272 ming so’mni tashkil etmoqda. 2013 yilda xo’jalik balansida tovar moddiy zaxiralar qiymati tugallanmagan ishlab chiqarish, va tayyor maxsulot qiymatining kamayishi hisobiga 10359,0 ming so’mga kamaygan. Bu esa 2013 yilda ishlab chiqarish uchun ekin maydonlarining qisqarganligi va mos ravishda xarajatlarning ham kamayganligini bildiradi.

2013 yilda jami debitorlik qarzlari 27595 ming so’m bo’lib asosan xaridor va buyurtmachilarni qarzi hisobiga to’g’ri kelib, 2013 yilda 3267 ming so’mga ortganligini xo’jalikning yutug’i deb bo’lmaydi, chunki debitorlik qarzlarning ortishi xo’jalik to’lov qobiliyatining kamayishiga sabab bo’ladi.

Xo’jalikning buxgalteriya balansiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, uning pul mablag’lari 2012 yilga nisbatan 2013 yilda 641 ming so’mga kamayganligini, ya’ni xo’jalik hisob-kitob schyotida pul mablag’lari ortmaganligini ko’rishimiz mumkin. Bu holat fermer xo’jaligi uchun ijobiy holat sifatida qaralmaydi. Chunki, bu holat to’lov qobiliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Shuningdek, xo’jalikda yil yakuniga ko’ra ishlab chiqarish zaxirlari qoldig’ida hamkamayish mavjud. Xozirgi sharoitda aylanma mablag’lar, zaxiralar va tugallanmagan ishlab chiqarish xajmi kam, sof faoliyat ko’rsatadigan sharoitiga yetarli emas deb xisoblaymiz.

2-jadval

“Nodirbek” fermer xo’jaligining buxgalteriya balansining tuzilishi va o’zgarishi. (ming so’mda)

AKTIV	2012 yil	2013 yil
I. Uzoq muddatli aktivlar		
Asosiy vositalar		
boshlang’ich (qayta tiklash) qiymat	31404	31404
eskirish	9421	14132
qoldiq qiymat	21983	17272
Uzoq muddatli investitsiyalar		
Kapital qo’yilmalar		
1-BO’LIM BO’YICHA JAMI	21983	17272
II. Joriy aktivlar		
Tovar moddiy zaxiralari jami	19813	9454
Ishlab chiqarish zaxiralari	14838	8267
Tugallanmagan ishlab chiqarish	4463	-
Kelgusi davr xarajatlari	512	1187
Debitorlar:		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo’naklar	24328	27595
Xaridor va buyurtmachilarni qarzi		
Boshqa debitorlik qarzlari		
Pul mablag’lari	2538	1897
II-BO’LIM BO’YICHA JAMI	46679	46705
Balansning aktivi bo’yicha JAMI	68662	63977
PASSIV		
I. O’zlik mablag’larning manbalari		
Ustav kapitali	1920	3820
Qo’shilgan kapital		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	28777	35347
I-BO’LIM BO’YICHA JAMI	30697	39167
II. Majburiyatlar		
Uzoq muddatli majburiyatlar jami	7468	2356
Joriy majburiyatlar jami		
SHu jumladan joriy kreditorlik qarzlari		
- mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	11141	10096
- sho’ba va qaram jamiyatlariga qarz		
- byudjet bo’yicha qarzlari	3058	71
-mexnatga xaq to’lash bo’yicha qarz	-	-
- maqsadli davlat jamg’armalariga qarz	7137	5287
- qisqa muddatli bank kreditlari	6885	5221
-boshqa kreditorlik qarzlari	1540	576
II-BO’LIM BO’YICHA JAMI	37965	24810
Balansning passivi bo’yicha JAMI	68662	63977

Balansning passiv qismida korxona mablag'larining qoplash manbalari ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mablag'larni to'ldirish o'zlik mablag'larning manbalari va majburiyatlardan iboratdir.

Bunda eng muhim o'rinni korxonaning o'ziga qarashli ustav, qo'shilgan va rezerv kapitallar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital xo'jalik ixtiyoridagi doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablag'larning hajmini ko'rsatadi. U turli xo'jalik muomalalari ta'sirida o'zgarib turadi. Bunga foydaning taqsimlanishi hisobiga to'ldirilish, xomiylarning a'zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baholanishi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Mablag'larning ko'paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o'rinni egallaydi. Foyda hajmining ko'payishi eng avvalo Nizom jamg'armasini to'ldirishga va boshqa ehtiyot jamg'armalari yaratilishga olib keladi.

Yuqoridagi xo'jalikning balans ma'lumotlariga ko'ra, xo'jalikda jami manbalar yil boshiga nisbatan 8470 ming so'mga ko'paygan bo'lib, o'zlik mablag'larning manbalari hisobot yil boshiga taqsimlanmagan foyda, xususiy kapital qiymatidagi o'zgarish hisobiga ko'paygan. Xo'jalikda xususiy kapital qiymatini shakllantirish, o'zmablag'lari manbalari qiymatini oshirishga erishish lozim. Chunki xo'jalik mablag'larini tashkil topish manbalari tarkibida o'zlik mablag'lari manbalari ko'pligi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2013 yilda 2012 yilga nisbatan majburiyatlar ham 13155 ming so'mga kamaygan. Bu kamayish 2013 yilda 5112 ming so'mlik uzoq muddatli majburiyatlarning ortishi hisobiga, byudjet bo'yicha qarzlarning 2987 ming so'mga, maqsadli davlat jamg'armalariga bo'lgan qarzning 1850 ming so'mga va qisqa muddatli bank kreditlarining 1664 ming so'mga kamayishi hisobiga yuz berganligi ijobiy natija deb bahoolashimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalarini asosiy qismi majburiyatlardan iborat bo'lishi, bu majburiyatlarning asosini byudjet bo'yicha qarzlari, davlatning maqsadli jamg'armalariga bo'lgan qarzlari, qisqa muddatli bank kreditlari tashkil

etishi va bu majburiyatlarning yillar davomida keskin oshib borishi jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqrozi sharoitida xo'jalik faoliyati uchun qoniqarli hisoblanmaydi, chunki yuqorida nomlari keltirilgan muassasalar tomonidan ushbu qarzlar uchun fermer xo'jaligi hisobidan qo'shimcha jarimalar va foizlar undirilishi mumkin hamda ushbu holat xo'jalikning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqrozi to'liq o'z kuchini yo'qotmagan bir sharoitda, moliyaviy jixatdan barqarorligiga jiddiy putr yetkazadi deb hisoblaymiz.

2.2. “Nodirbek” fermer xo'jaligida xarajatlar va ularni moliyaviy natijalarga ta'siri tahlili.

Bugungi kunda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylanganligi muhtaram Prezidentimizning ma'ruzalarida o'z aksini topgan. “2012-yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari – g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olindi. Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil yetishtirishdi – 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ib-terib olindi.”⁵

Xozirgi kunda har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt mumkin bo'lgan maksimal foydani olishni ta'minlaydigan qarorni qabul qilishga harakat qiladi. Korxonalarning foydasiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ko'rsatkich bu mahsulot uchun qilingan xarajatdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish, unga sarflangan xarajatlarni hisobini yuritish buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi hisoblanadi. Xarajatlarni boshqarish tizimida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritish muhim hisoblanadi. Buxgalteriya hisobida xarajatlarni turkumlashning har qanday maqsadi rahbariyatga to'g'ri asoslangan qaror qabul qilishiga yordam

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi. 2013 yil 19 yanvar.

berishdir, chunki fermer, qaror qabul qilishda qaysi xarajatlarni amalga oshirish natijasida qanday foyda olishligini bilishi lozim. SHu sababli xarajatlarni turkumlash – bu fermer qaroriga ta’sir etuvchi xarajatlarni ma’lum qismini ajratishdan iboratdir.

Ichki axborot iste’molchilari hisoblangan fermerlar yoki uning boshqaruvchisi buxgalteriya hisobining ma’lum yo’nalishini belgilaydi, tegishli faoliyat uchun zarur bo’lgan axborotni ta’minlash maqsadida alohida ajratib oladi.

Xarajatlar Nizomda aytib o’tilganidek, mahsulot yetishtirish bilan bog’liq bo’lgan va mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan lekin, hisobot yili yakunida xo’jalik yurituvchi sub’ekt foydasi hisobidan qoplanadigan davr xarajatlariga bo’linadi. Ushbu xarajatlar buxgalteriya hisobida alohida-alohida hisobvaraqlarda hisobga olib boriladi.

Xarajatlar – o’z ta’rifiga ko’ra, kelajakda foyda olish maqsadida xo’jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan qonuniy faoliyatning u yoki bu soxasiga o’z aktivlarining safarbar qilinishi hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan biz quyida “Nodirbek” fermer xo’jaligida yetishtirilgan mahsulotlarga sarflanayotgan xarajatlarni o’zgarishini tahlil qilib o’tamiz. Quyidagi jadvalda xo’jalik paxtachilik xarajatlari tarkibi aks ettirilgan.

**Baliqchi tumanidagi “Nodirbek” fermer xujaligida paxta yetishtirish
xarajatlari tarkibi (mingso’mda).**

№	Xarajatlar turi	2012	%	2013	%
1	Moddiy xarajatlar	33110	42,4	19650	43,0
	a) urug’lik	3676	11,1	2182	11,1
	b) o’g’itlar	19670	59,4	11673	26,4
	v) YO.M.M	9456	28,6	5612	0,3
	g) ish va xizmatlar	308	0,9	183	0,9
	d) boshqa moddiy xarajatlar	-	-	-	-
2	Mexnat xaki xarajatlari	23916	29,7	14193	31,1
3	Ijtimoiy ajratmalar	5979	7,6	2873	6,3
4	Asosiy vositalar eskirishi	2140	2,7	1270	2,8
5	Boshka xarajatlar	12991	16,6	7710	16,8
	Jami:	78136	100	45696	100

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida paxta yetishtirish xarajatlari biz o'rganayotgan yillarda kamaygan. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning ortishiga qaramay, ekin maydonlarining kamayishi yetishtirilayotgan mahsulotga sarflangan xarajatlar miqdorini kamayishiga sabab bo'lmoqda. 2013 yilda mahsulot tannarxi tarkibida moddiy xarajatlar (urug'lik, o'g'itlar, ish xizmatlar) asosiy salmoqni egallab, 43,0 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, moddiy xarajatlar tarkibida o'g'itlar va urug'lik xarajatlari asosiy salmoqni tashkil etib, 37,5 foizdan iborat bo'lmoqda. Ko'rinib turibdiki, xo'jalikda mahsulot tannarxining ortib borishida moddiy xarajatlar katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Shu bilan birgalikda, paxta yetishtirish xarajatlari tarkibida mehnatga xaq to'lash xarajatlari ham katta ahamiyatga ega bo'lib, ushbu xarajat jami xarajatning 31,1 foizini yoki 14193 ming so'mga teng bo'lmoqda.

Quyidagi uzatmalardan ko'rinib turibdiki "Nodirbek" fermer xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari 2010- "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ida hisobga olib kelinmoqda. Bu hisob balansga nisbatan aktiv hisoblanib, uning debetida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar hisobga olinsa, kreditida mahsulotlarning reja va xaqiqiy bahosida chiqishi aks ettiriladi. Buxgalteriya uzatmalaridan ko'rinib turibdiki, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olinganda 2010-Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi debetlangan bo'lsa, tegishli schyotlar kreditlangan. Masalan, dexqonchilikka sarflangan urug'lik xarajatlariga DT 2010 – KT 1090 uzatmasi berilgan bo'lsa, qolgan barcha uzatmalarda xam 2010 – Asosiy ishlab chiqarish schyoti debetlanib, 1091, 1030, 6010, 6710, 6510, 0210 va boshqa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar kreditlangan. Yil yakunida dexqonchilik mahsulotlari xaqiqiy tannarxi aniqlanib reja tannarxga tenglashtiriladi. Tayyor mahsulotlar hisobga olinganda 2810 – Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar debetlanib 2010 – Asosiy ishlab chiqarish schyoti kreditlangan. Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan xarajatlarni buxgalteriya hisobi uzatmalarida quyidagicha aks ettirish mumkin:

**“Nodirbek” fermer xo’jaligida paxta yetishtirish xarajatlarini schyotlarda aks
ettirilishi. (ming so’mda)**

DT	1091	KT	DT	2010	KT	DT	2810	KT
	2182	(1a)	2182	45696	(6)	45696		
DT	1092	KT						
	11673	(1b)	11673					
DT	1030	KT						
	5612	(1b)	5612					
DT	6010	KT						
	183	(1g)	183					
DT	6710	KT						
	14193	(2)	14193					
DT	6510	KT						
	2873	(3)	2873					
DT	0210	KT						
	1270	(4)	1270					
DT	BX	KT						
	7710	(5)	7710					
	Ayl: 45696			Ayl: 45696				

4-jadval

**Baliqchi tumanidagi “Nodirbek” fermer xo’jaligida bug’doy yetishtirish
xarajatlari tarkibi**

№	Xarajatlar turi	2012	%	2013	%
1	Moddiy xarajatlar	21951	62,6	17883	64,3
	a) urug’lik	5963	27,2	4860	17,0
	b) o’g’itlar	8114	36,9	6611	37,0
	v) Yo.M.M	4052	18,5	3302	18,5
	g) ish va xizmatlar	3822	17,4	3110	17,4
	d) boshka moddiy xarajatlar	-	-	-	-
2	Mexnat xaki xarajatlari	5492	16,1	4475	16,1
3	Ijtimoiy ajratmalar	1373	4,0	1118,7	4,1
4	Asosiy vositalar eskirishi	2254	6,6	1830	6,6
5	Boshka xarajatlar	3033	8,9	2481	8,9
	Jami:	34103	100	27787,7	100

Jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatib turibdiki, xarajatlar tarkibida moddiy xarajatlar 2013 yilda salmoqli ulushni , ya’ni 64,3 foizni tashkil qilmoqda. Barcha xarajatlar 2013 yilda 2012 yilga nisbatan ekin maydonlarining kamayishi hisobiga barcha xarajat moddalari bo’yicha mos ravishda kamayib borgan. Buning asosiy sababi ekin maydonining 21,2 gektarga kamayishidir. Jadval ma’lumotlarini buxgalteriya uzatmalarida quyidagicha aks ettirish mumkin.

Xo’jalikda bug’doy yetishtirish yetishtirish xarajatlari belgilangan tartibdagi Nizom asosida hisobga olib borilib, bunda xarajatlarining ortganligini va uning tarkibida moddiy xarajatlarning asosiy salmoqni egallab turganligini ko’rishimiz mumkin. Bug’doy yetishtirish xarajatlari xam asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi 2010-Asosiy ishlab chiqarish hisobvarag’ida hisobga olib boriladi. YA’ni bug’doy yetishtirish xarajatlari ushbu schyotda alohida analitik hisob ochilib hisobga olib boriladi.

“Nodirbek” fermer xo’jaligida bug’doy yetishtirish xarajatlarini schyotlarda aks ettirilishi. (ming so’mda)

DT	1091	KT	DT	2010	KT	DT	2810	KT
	4860	(1a)	4860	27787,7	(7)	27787,7		
DT	1092	KT						
	6611	(1b)	6611					
DT	1030	KT						
	3302	(1v)	3302					
DT	6010	KT						
	3110	(1g)	3310					
DT	6710	KT						
	4475	(2)	4475					
DT	6510	KT						
	1118,7	(3)	1118,7					
DT	0210	KT						
	1830	(4)	1830					
DT	BX	KT						
	2481	(5)	2481					
	Ayl: 27787,7			Ayl: 27787,7				

Yuqorida ko'rib o'tilgan xarajatlar bilan birgalikda mahsulot tannarhiga kiritilmaydigan va sotishdan olingan yalpi foyda hisobidan qoplanadigan davr xarajatlari ham hisobga olingan. Davr xarajatlari sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar va boshqa operatsion xarajatlardan iborat bo'ladi.

2.3. “Nodirbek” fermer xo'jaligi moliyaviy natijalarining tahlili.

“Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat o'zgarishlari alohida e'tiborga sazovordir.

Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'rnini tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda”⁶.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy natijalarni shakllantirish “Mahsulot (ish-xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizom asosida hisobga olinadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moliyaviy hisobotning asosiy shakli hisoblanib, 2-shaklda umumlashtiriladi. Xo'jalikning moliyaviy natijalaridan ko'rinib turibdiki, unda sof foydaning shakllanishida mahsulotlarni sotishdan olinayotgan yalpi foyda muhim rol o'ynaydi. O'z o'rnida mahsulotni sotishdan olinayotgan yalpi foydaga sotilayotgan mahsulotning miqdori, o'rtacha sotish bahosini o'zgarishi, shuningdek, uning o'rtacha tannarxini o'zgarishi ta'sir etadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari yordamida xo'jalikning moliyaviy natijalarini taxlil qilib o'tamiz.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2014 yil 18 yanvar.

5-jadval

Baliqchi tumanidagi “Nodirbek” fermer xo’jaligi moliyaviy natijalari va uning o’zgarishi tahlili. (ming so’mda)

№	Ko’rsatkichlar	2012 yil	2013 yil
1	Maxsulot (tovar,ish,xizmat)larni sotishdan sof tushum	127259,5	116975
2	Sotilgan mahsulot (tovar,ish,hizmat) larni tannarxi	112239	73483,7
3	Mahsulot (tovar,ish,xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	15020,5	43491,3
4	Davr xarajatlari. shu jumladan:	6094	9204
	-Sotish xarajatlari	3454	-
	-Ma’muriy xarajatlar	1999	9204
	-Boshqa operatsion xarajatlar	641	-
5	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	8926,5	34287,3
6	Xisobot davrining sof foydasi (zarari)	8926,5	34287,3

“Nodirbek” fermer xo’jaligi moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, xo’jalikning 2012-2013 yillardagi sof foydasi 8926,5 ming so’mdan 34287,3 ming so’mga yetgan, ya’ni 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 25360,8 ming so’mga ortgan. Xo’jalikda mahsulotlarni sotishdan olinayotgan tushum 2012 yilga nisbatan 2013 yilda 38755,3 ming so’mga kamaygan bo’lib, buning asosiy sababi ekin maydonlarining kamayishi hisobiga mahsulot ishlab chiqarishning kamayishidadir. Maxsulotlarni sotishdan tushgan sof tushumning kamaygan, lekin xarajatlarning kamayishi o’z navbatida boshqa iqtisodiy samaradorlik ko’rsatkichlarning ko’tarilishiga sabab bo’lgan. YA’ni, mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 28470,8 ming so’mga ko’paygan, maxsulot ishlab chikarish tannarxi esa 2012 yilga nisbatan 2013 yilda 38755,3 ming so’mga kam bo’lgan, natijada hisobot davrining sof foyda 2013 yilda 2012 yilga nisbatan yuqorida ta’kidlanganidek, 34287,3 ming so’mga keskin ortgan. Xo’jalik 2013 yildagi xato va kamchiliklarni hisobga olgan holda, maxsulot tannarxini ekstensiv omillar bilan emas , balki intensiv

omilarni ta'sirida kamaytirgan holda ishlab chiqarish samaradorligini bundan ham oshirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqishi zarur deb hisoblaymiz.

Fermer xo'jaliklarida xaridorlar va buyurtmachilar bilan tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun debitorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"da amalga oshiriladi. Fermer xo'jaliklarida 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyotida sotilgan mahsulot (tovar)lar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha debitorlik qarzlari hisobga olinadi. Fermer xo'jaliklarida 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" asosiy (operatsion) faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000), asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200) va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9300) bilan bog'langan holda xaridor (buyurtmachi)larga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga debetlanadi.

Fermer xo'jaliklarida 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan kelib tushgan to'lovlar summasiga, olingan avanslarni hisobga olish va boshqalar bilan bog'langan holda kreditlanadi. 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" bo'yicha analitik hisob har bir xaridor (buyurtmachi) bo'yicha yuritiladi.

Fermer xo'jaliklarida paxta va donli ekinlarga davlat buyurtmasi bo'lib, bu mahsulotlardan paxtani to'liq davlatga sotsa, donli ekinlarni davlat buyurtmasida belgilangan qismini sotadi. Qolgan mahsulotlarni esa ixtiyoriy ravishda xaridor va buyurtmachilarga sotadi.

Fermer xo'jaliklarida sotish turlari:

- 1) Davlat buyurtmasi bo'yicha sotish.
- 2) Davlat buyurtmasi bo'lmagan sotish.

Nodirbek fermer xo'jaligida ham yetishtirayotgan paxta, bug'doy va pilla davlat buyurtmasi asosida sotiladi. Ushbu jarayon natijasida yuqoridagi mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar yuzaga keladi.

6-jadval.

Baliqchi tumanidagi "Nodirbek" fermer xo'jaligida mahsulotlarni sotish va daromadlarning o'zgarishi.

№	Mahsulot turi	2012 yil		2013 yil	
		Qiymati, ming so'm	Salmog'i, %	Qiymati, ming so'm	Salmog'i, %
1	Bug'doy	42483,9	33,4	39492	33,8
2	Paxta	76367,1	60	73191,2	62,5
3	Pilla	8408,5	6,6	4291,7	3,7
	Jami	127259,5	100	116974,9	100

YUqorida aytib o'tilganidek fermer xo'jaligida mahsulotlarni sotish asosan davlat buyurtmasi asosida yetishtirilib sotilmoqda. Bu esa hozirgi kunda fermer xo'jaligida asosan paxta, bug'doy va pilla sotish orqali amalga oshirilmoqda. Fermer xo'jaligida mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar 2012 yilda jami 127259,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda ushbu ko'rsatkich 116974,9 ming so'mga teng bo'lmoqda. Sotishdan olingan daromad asosan paxta va bug'doy hisobidan shakllangan. YA'ni, xo'jalik 2013 yilda olingan daromadning 33,8 foizini bug'doy hissasiga to'g'ri kelgan. Bu 2012 yilga nisbatan 0,4 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Paxtachilikdan olingan daromadlar ham 2012 yilga nisbatan hisoblaganda ortgan va uning jami daromaddagi ulushi ham 2,5 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Pilla yetishtirishdan olinayotgan daromadlar jami daromadlarga nisbatan 2012 yilda 6,6 foizni, 2013 yilda esa 3,7 foizni tashkil etmoqda.

3-BOB. FERMER XO'JALIKLARIDA MOLİYAVIY NATIJALAR HISOBI VA TAHLILINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.

3.1. “Nodirbek” fermer xo'jaligida moliyaviy natijalarning sintetik va analitik hisobini tashkil etilishi.

Moliyaviy natijalarni shakllanishini kuyidagi buxgalteriya hisobi schyotlaridagi yozuvlar orqali tekshiradi: 9000-«Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari», 9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi schyotlari», 9500-«Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari», 9700 - «Favkulotda foyda (zarar)lar hisobi schyotlari», 9800 — «Soliqlar va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi hisobi schyotlari», 9900 — «Yakuniy moliyaviy natija» va boshqa schyotlar.

Asosiy faoliyatdan daromadlar tayyor mahsulotlarni, tovarlarni sotishdan olingan daromadlar, bajarilgan ishlar va xizmatlardan olingan daromadlardan iborat. Ushbu daromadlar 9010 - «Tayyor maxsulotni sotishdan olingan daromadlar», 9020 - «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar», 9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» schyotlarning kreditida va 4010 - «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan tovarlar, 5110 — «Hisob-kitob schyotining» debetida aks ettirilgan bo'ladi. Naqd pulga sotilgan tovarlar, tayyor mahsulotlardan olingan tushumlar esa bevosita 5010, 5020 schyotlarda ifodalangan bo'ladi. Realizatsiyadan olingan daromadlar oy oxirida yakuniy moliyaviy natijalar schyotiga o'tkazilgan bo'ladi.

Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlarning shakllanishi 2-son «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli BHMS bilan tartibga solinadi.

Nodirbek fermer xo'jaligi moliyaviy natijalarini hisobga olish bilan bog'liq muomalalarni buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettirish mumkin.

3-shakl

“Nodirbek” fermer xo’jaligida moliyaviy natijalarini hisobga olishni va operativ schyotlarni yopilishini buxgalteriya uzatmalarida aks ettirilishi.
(2013 yil, ming so’mda)

DT	9110	KT	DT	9900	KT	DT	9010	KT
	73483,7	(2)	73483,7	116975	(1)	116975		
DT	9420	KT						
	9204	(4)	9204					
DT	8710	KT						
	34287,3	(6)	34287,3					
AYLANMA:				116975	AYLANMA: 116975			

Yuqoridagi uzatmalardan ko’rinib turibdiki, xo’jalikda moliyaviy natijalarni hisobga olish schyotlar rejasining 9 bo’lim schyotlarida olib borilib, bu schyotlar tranzit schyotlar deb ataladi. Ushbu hisoblar hisobot davri yakunida yopiladigan

schyotlar hisoblanadi. Daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar 9900-yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotning krediti bilan, xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar ushbu schyotning debeti bilan bog'langan xolda yopiladi. 9900-yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyot 8700 Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) schyoti bilan bog'langan xolda yopiladi.

Hisobot axborotlari sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar, ularni ishlab chiqarish xarajatlari, xo'jalik mablag'lari va ularni tashkil bo'lish manbalari, ishlarning moliyaviy natijalari, soliqqa tortish va dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Fermer xo'jaliklarida xaridorlar va buyurtmachilar bilan tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun debitorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"da amalga oshiriladi. Fermer xo'jaliklarida 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyotida sotilgan mahsulot (tovar)lar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha debitorlik qarzlari hisobga olinadi. Fermer xo'jaliklarida 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" asosiy (operatsion) faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000), asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200) va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9300) bilan bog'langan holda xaridor (buyurtmachi)larga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga debetlanadi.

Fermer xo'jaliklarida 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan kelib tushgan to'lovlar summasiga, olingan avanslarni hisobga olish va boshqalar bilan bog'langan holda kreditlanadi. 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" bo'yicha analitik hisob har bir xaridor (buyurtmachi) bo'yicha yuritiladi.

Fermer xo'jaliklarida paxta va donli ekinlarga davlat buyurtmasi bo'lib, bu mahsulotlardan paxtani to'liq davlatga sotsa, donli ekinlarni davlat buyurtmasida belgilangan qismini sotadi. Qolgan mahsulotlarni esa ixtiyoriy ravishda xaridor va buyurtmachilarga sotadi.

Fermer xo'jaliklarida sotish turlari:

- 1) Davlat buyurtmasi bo'yicha sotish.
- 2) Davlat buyurtmasi bo'lmagan sotish.

Nodirbek fermer xo'jaligida ham yetishtirayotgan paxta, bug'doy va pilla davlat buyurtmasi asosida sotiladi. Ushbu jarayon natijasida yuqoridagi mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar yuzaga keladi.

Quyidagi uzatmadan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda mahsulotlarni sotishda olingan daromadlarni hisobga olishda xaridorlar bilan hisob-kitoblarni aks ettirish uchun 4010-Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar hisobvarag'idan foydalaniladi. Ushbu hisobning debetidagi summa xaridor va buyurtmachilarga sotilgan va ulardan olinishi ko'zda tutilgan schyotlarni hisobga olib borish uchun mo'ljallangan. Ushbu schyotning kreditida sotilgan mahsulot va ish-xizmatlar uchun xo'jalikning hisob raqamiga kelib tushgan pullarni hisobga olishini aks ettiriladi.

4-shakl

“Nodirbek” fermer xo'jaligida mahsulot sotish bo'yicha xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni buxgalteriya uzatmalarida aks ettirilishi. (2013 yil, ming so'mda)

DT	9010	KT	DT	4010	KT
		116975		116975	

3.2. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalarga salbiy ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish masalalari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi bu – foyda olishdir. Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o'zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari rivojlangan davrida ko'tariladi. Foyda olishni ko'paytirish jamiyat manfaatlariga ham mos keladi, chunki, iqtisodiy faoliyatning yuqori foydaliligi individual foydaning ko'payishi bilan mamlakat milliy daromadining ortishiga olib keladi. Shu o'rinda Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek "...mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi"⁷. Yuqoridagi ko'rsatkichlarga erishishda albatta har bir ijobiy moliyaviy natijaga erishgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xissasi bor. SHunday ekan mamlakatni hamda korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirishi uchun ularning olgan moliyaviy natijalarining ahamiyati kattadir. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar olgan foydasi hisobidan faoliyatni kengaytirish, shu bilan birga yangi ish o'rinlari tashkil qilish, kelgusida mahsulot ishlab chiqarish xajmini oshirish kabi maqsadlarini amalga oshirishlari mumkin.

Respublikada bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun keng imkoniyatlar ochib berilgan. SHu sababli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z faoliyatlari davomida yetarli darajada daromad olib xarajatlarni amalga oshirmoqdalar. Ularning olgan foydalaridan o'z maqsadlari yo'lida mustaqil foydalanadilar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning olgan daromadlari oshib borar ekan, mamlakat ham yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga erishiladi. SHunday ekan mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida korxonalarga soliq va boshqa majburiy to'lovlardan

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2013 yil, 19 yanvar.

imtiyoz va yengilliklar berib kelinmoqda. Natijada korxonalarning daromadlari ham yildan-yilga o'sib bormoqda.

Aytish mumkinki, foyda miqdori va uning darajasi bozor ishtirokchilari, ayniqsa investorlarni xarakatga keltiruvchi kuchdir. Bozor ishtirokchilarining manfaatdorligi foyda miqdori bilan beligalanadi.

Mavzuni o'rganish natijasida moliyaviy natijalarning shakllanishini quyidagicha tavsiflashni lozim topdik:

1. Mahsulotlarni sotishdan olingan natija;
2. Asosiy faoliyatdan olingan natija;
3. Umumxo'jalik faoliyatidan natija;
4. Soliq to'langunga qadar bo'lgan natija;
5. Sof foyda yoki zarar.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o'zaro farqlanishidagi holatga baho beriladi. Moliyaviy natijalar foyda va zararlarining shakllanish qatorlari bo'yicha o'zgarishlari o'rganiladi. Foyda va zararlarining omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijalarni ijobiyligini ta'minlash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo'lga qo'yishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik ko'rsatkichi va uning omilli tahlili o'tkazilishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalarini ijobiyligini ta'minlash orqali, moliyaviy barqarorligini va to'lov qobiliyatini oshirishdan iboratdir.

Bugungi kunda korxonalarning moliyaviy natijalarini tahlil etishda moliyaviy tahlilning eng asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning foydalilik darajasiga baho berish;
- korxonaning moliyaviy natijalarining tarkibi, tuzilishiva dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- biznes rejada belgilangan foydalilik darajasiga erishilganligi va unga ta'sir etgan omillarni o'rganish hamda baho berish;
- foydaning shakllanishi va ishlatilishining asoslanganligini tekshirish;

- foydaning ko'paygan yoki kamayganligiga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan va boshqa faoliyatlardan erishilgan natijaning ta'sir etishini aniqlash;
- korxonaning yalpi foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan foydaning shakllanishiga va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning sof foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda baho berish;
- sof foydani kupaytirish yo'nalishlarini belgilab berish;
- korxonaning rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning umumiy rentabellik darajasini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va hakerolar.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarda moliyaviy natijalarni tahlil qilishning ahamiyati katta bo'lib, moliyaviy natijalarni ijobiyligini ta'minlashda tahlilning zarurati va roli kattadir.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlash xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatiga to'liq baho berish imkonini beradi.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy natijalari hisobini tashkil etish va yuritish uchun nazariy hamda huquqiy asoslar mavjud. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar fikrimizning dalili bo'lib hisoblanadi.

Koxonalarda moliyaviy natijalarni tahlil qilishning ahamiyati katta bo'lib, moliyaviy natijalarning ijobiyligini ta'minlashda tahlilning zarurati va roli kattadir.

Korxonalarda daromadlar va xarajatlarni tan olish mezonlari batafsil ishlab chiqilgan va yoritib berilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning olingan daromadlari ularning faoliyatiga mos ravishda, ishlab chiqaruvchilarda mahsulotlarni sotishdan, savdo faoliyatida tovarlarni sotishdan, xizmat ko'rsatuvchilarda xizmatlarni ko'rsatishdan olingan sof tushum hisoblanadi.

Bugungi jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida maxsulot tannarxini pasaytirgan holda maxsulotlarni sotish (xizmatlar ko'rsatish)dan tushayotgan tushumlarni ko'paytirish barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar oldida turgan dolzarb muammolardan biri ekanligini muxtaram prezidentimiz ma'ruzalaridan ham ko'rishimiz mumkin. "...jahon bozorida kechayotgan inqiroz jarayonlari o'tgan davr mobaynida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi va O'zbekiston iqtisodiyotining 2012-yilga mo'ljallangan o'sish sur'atlari va samaradorligini ta'minlashda katta qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Birinchi navbatda, dunyo bozorida xomashyo va tayyor mahsulotga ehtiyojning tobora pasayib borishini hisobga oladigan bo'lsak, bunday holat mamlakatimizning eksport salohiyati va valyuta tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta".

Shunday ekan, korxonalar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish uchun ularning xo'jalik operatsiyalarini o'z vaqtida nazorat qilish, nazoratning asosi korxonada

tashkil qilingan buxgalteriya hisobi tizimi ekanligini inobatga olgan holda buxgalteriya hisobini meyoriy xujjatlar asosida to'g'ri va aniq yuritishni tashkil etish lozim.

“Nodirbek” fermer xo'jaligi 2013 yildagi xato va kamchiliklarni hisobga olgan holda, maxsulot tannarxini ekstensiv omillar bilan emas , balki intensiv omilarni ta'sirida kamaytirgan holda ishlab chiqarish samaradorligini bundan ham oshirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqishi zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, “Nodirbek” fermer xo'jaligi ikki yillik ma'lumotlari taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, xo'jalik hisobot davrining sof foydasi meyordan kam deb aytishimiz mumkin. Fermer xo'jaligining moliyaviy natijalarini yaxshilash uchun albatta omilli tahlil o'tkazish lozim. Bu bilan moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni ajratib olish mumkin. Ijobiy omillardan kelgusida foydalanib, salbiy omillarni bartaraf etish yo'llarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Ishning yakunida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Moliyaviy natijalarni yaxshilash maqsadida bo'sh turgan pul mablag'larini investitsiyaga jalb qilish kerak. Bu bilan moliyaviy faoliyatdan olingan natijani ijobiyligini ta'minlash mumkin bo'ladi.
2. Xo'jalikning moliyaviy natijalarini har olti oyda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa moliyaviy natijalarni oshirish uchun ichki imkoniyatlarni aniqlash, bu imkoniyatlardan kelgusida foydalanish uchun zamin yaratadi.
3. Moliyaviy natijalar ifodalovchi ko'rsatkichlar Nizomga ko'ra amalga oshirilishi kerak.
4. Xo'jalikda daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobida to'liq va aniq hisobga olib borilishini tashkil etish lozim. Bu esa hisobot davrida xo'jalik moliyaviy holatiga aniq baho berish imkonini beradi.

Umuman olganda xo'jalik mahsulot sotishdan olinadigan daromadlarini oshirishi kerak. Bu esa xo'jalikni sof foydasiga ijobiy ta'sir qilib, korxonani samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Yuqoridagi fikr muloxozalarni amaliyotga tadbiq qilinsa, o'z samarasini beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2009 yil. 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. –T.: 1996 yil 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fermar xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. –T.: 1998 yil 30 aprel
4. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. T., 2000 y.
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.T., 2008 y.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistonda Fermarlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2012 yil 22 oktyabr, PF-4478-son

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va

O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011 yil PQ-1675-sonli Qaroriga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Mahsulot (ishlar, hizmatlar)ni ishlab chiqarish va

sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. T., 2012 y.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 290-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida" 288-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki valyuta bozorida almashuv kurslarini birxillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli qarori. –T.: 2001y
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida" nizom. O'Z AV tomonidan 1192-son bilan ro'yxatga olingan –T.: 2002 y.
14. O'zbekiston Respublikasining Buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari, To'plam. T.: O'zR BAMA nashriyot markazi. 2002. 220 b.
15. "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliya - xo'jalik faoliyati buxgaltyeriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha ko'rsatma", O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Buxgaltyerlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasi, -T., 2003 y.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

16. I.Karimov. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: "O'zbekiston". 2009y. -56 b.
17. I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston" 2010 yil
18. "Mamlakatimizni modyernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi." Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi 2009 yil 14 fevral, № 33-34 (4696-4697)

19. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi". Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi. 2011 yil 21 yanvar.
20. "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". Prezident I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi. 2012 yil 20 yanvar.
21. "2014 yil Yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2014 yil

V. Darsliklar

21. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. /Darslik -T.: SHarq, 2004.-592 b.
22. Sotivoldiyev A. S. Zamonaviy buxgalteriya xisobi. Darslik. –T. BAMA, 2005 y 234 b.
23. Jo'raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv xisobi. Darslik. -T.: 2007 y 344 b.
24. Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya xisobi, iktisodiy taxlil va audit. Darslik. -T.: 2007 y. 250 b.

25. R.O.Xolbekov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: TDIU, 2010. – 212 b.
26. M.M.To'laxo'jaeva va boshqalar. Audit. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 456 b.
27. N.YU.Jo'raev, F.T.Abduvaxidov, D.A.Sotvoldiyeva. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: TDIU, 2010. – 287 b.
28. O.Bobojonov, X.Axmedov, A.Turkmanov. Moliyaviy hisob. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 536 b.
29. T.Qudratov, N.Fayziyeva. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik. – T.: Voris-nashriyot, 2012. – 256 b.
30. A.V.Vahobov, N.F.Ishonqulov, A.T.Ibrohimov. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. - T.: Iqtisod-Moliya, 2013. – 600 b.

VI. O'quv qo'llanmalar

31. Bekmuradov A. va boshqalar. Moliya va bank tizimidagi islohatlar samarasi. –T.: TDIU. 2005. 62 b.
32. O'razov K.B. Iqtisodiyotni yerkilashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari/ K.B. Urazov. - T.: Fan nashriyoti, 2005. - 236 b.
33. B.YU.Xodiyev, A.SH.Bekmuradov, U.V.G'afurov. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizni mod'yernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" hamda "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 b.
34. O.Bobojonov, K.Jumaniyozov, X.Axmedov, A.Turkmanov. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 463 b.

VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari

35. "Soliq solish va buxgalteriya hisobi" jurnali. –T.: 2010-2012 yillar.

36. “O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnal. –T.: 2010-2012 yillar.
37. “Bozor, pul va kredit” jurnal. –T.: 2010-2012 yillar.
38. “Soliq va bojxona habarlari” gazeta. –T.: 2009-2011 yillar.
39. O’zbekistonning 2011-2012 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko’rsatkichlari. –T.: O’zbekiston, 2011.
40. Baliqchi tuman „Nodirbek” fermer xo’jaligining yillik moliyaviy va statistika hisobotlari.

VIII. Intyernet saytlari

41. Uchebnye matyerialy po Buxgalterskomu uchetu. On-line
<http://www.ic.omskreg.ru/econrus/win/library/3/37/371/3713/table.htm>
42. <http://www.imce.ru>
43. “Norma” 2012-2013
44. www.uz.report.com.
45. www.ceep.uz.
46. www.consultant.ru
47. www.comyersant.ru
48. <http://www.soliq.uz> (O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi sayti)
49. <http://www.mf.uz> (O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti)
50. [www. Bir.uz](http://www.Bir.uz)
51. <http://www.rbc.ru/consulting>.